


TARIX

1. Quyidagi voqealar to'g'ri xronologik tartibda joylashtirilgan javobni toping.
1) Ahamoniylar davlati tashkil topdi; 2) Sin sulolasi hukmdori Xitoyni yagona davlatga birlashtirdi; 3) Salavkiylar davlati vujudga keldi
A) 1, 2, 3 B) 3, 1, 2 C) 1, 3, 2 D) 3, 2, 1
2. Temuriyzoda Husayn Boyqaro faoliyati bilan bog'liq to'g'ri ma'lumotlar ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) Amudaryoning janubidagi yerlarga hukmron bo'lib, o'z tasarrufiga Xuroson, Xorazm hamda Sharqiy va Shimoliy Eron viloyatlarini birlashtirgan; 2) qariyb 40 yil hukm surgan temuriylarning so'nggi yirik hukmdori; 3) sarbadorlar harakatini qo'llab-quvvatlagan; 4) Xorazmga besh marta harbiy yurish qilgan; 5) Xurosonning obod etilishida, ravnaq topishida xizmati katta bo'lgan; 6) Movarounnahr va Xurosonni yagona davlatga birlashtirgan.
A) 1, 4, 6 B) 2, 3, 5 C) 2, 4, 6 D) 1, 2, 5
3. 1809-yilda Xiva xonligida tilla tangalar zarb qilishni yo'lga qo'ygan hukmdorni toping.
A) *Oloqulixon* B) *Said Muhammadxon*
C) *Eltuzarxon* D) *Muhammad Rahimxon I*
4. Qaysi javobda nomi keltirilgan tarixiy shaxs qo'zg'olon rahbari **bo'lmagan**?
A) *Platon* B) *Spartak* C) *Frada*
D) *Lyu Ban*
5. XIX asrning o'rtalarida Qo'qon xonligi va Buxoro amirligi o'rtasida tez-tez to'qnashuvlarga sabab bo'lgan hududlarni aniqlang.
1) Ko'lob; 2) Hisor; 3) Vaxsh; 4) Darvoz;
5) Sho'g'non
A) 1, 3, 5 B) 2, 3, 4 C) 1, 4, 5 D) 2, 4, 5
6. Quyidagilardan VIII asrda Arab xalifaligini boshqargan xalifalarni belgilang.
1) Muoviya I; 2) Umar ibn Abdulaziz;
3) Ma'mun; 4) Sulaymon
A) 2, 4 B) 1, 3 C) 1, 4 D) 2, 3
7. 2001-yil 11-sentabr kuni Nyu-Yorkda amalga oshirilgan terrorchilik aktidan so'ng AQSh Prezidenti kichik Jorj Bush Eronni "xalqaro terrorizmning sherigi" deb atadi. Bu tamg'adan qutulish uchun Eron qanday ishlarni amalga oshirdi?
1) "Hizbulloh" rahbarlari mamlakatdan quvib chiqarildi; 2) BMT inspektorlari AQSh foydasiga josuslik qilishda ayblandi va ular mamlakatdan quvib chiqarildi; 3) Sudan, Liviya, Bosniyadagi eronlik diniy maslahatchilar chaqirib olindi; 4) mamlakatda "oq inqilob" deb nom olgan islohotlar amalga oshirildi.
A) 2, 4 B) 1, 4 C) 2, 3 D) 1, 3
8. Abulg'oz Bahodirxon Xiva xonligiga ko'chib kelgan 32 ta o'zbek qabilalarini 4 ta guruhga bo'ladi. Qaysi javobda ushbu guruhlar to'g'ri berilgan?
1) shulluk-joung'ur; 2) qang'li-qipchoq;
3) qo'ng'irot-qiyot; 4) uyg'ur-nayman;
5) qo'ldovli-kenagas; 6) nukuz-mang'it
A) 1, 3, 5, 6 B) 1, 2, 4, 5 C) 2, 4, 5, 6
D) 2, 3, 4, 6
9. Qachondan boshlab ingliz mustamlakasi bo'lgan Shimoliy Amerikaga Afrikadan qora tanli qullar keltirila boshlangan?
A) *XVIII asrdan* B) *XVII asrdan*
C) *XIX asrdan* D) *XV asrdan*
10. XX asr o'zbek kinematografiyasi rivojiga katta hissa qo'shgan ijodkor berilgan javobni toping.
A) *Toshmuhammad Qori Niyoziy*
B) *Komil Yormatov*
C) *Muhiddin Qori Yoqubov*
D) *Yahyo G'ulomov*

11. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, Eyer-Venn diagrammasiga mos keladigan javobni toping.



- a) mustamlakachilik zulmiga qarshi kurashga Xose Morelos boshchilik qildi; b) Migel Idalgo hindu jamoalari mustamlakachi ma'murlarga to'lab kelgan o'lpenni bekor qildi; c) mustaqillikka erishgach, mamlakatda Respublika tuzumi o'rnatildi; d) Xose San-Martin qo'mondonligidagi inqilobiy qo'shin davlatni ozod qildi; e) mustamlakachilik zulmiga qarshi kurash boshlangan 25-may kuni mamlakatda milliy bayram kuni hisoblanadi; f) Portugaliya mustamlakasi bo'lgan.
- A) I-a, e; II-b, d; III-f B) I-a, b; II-d, e; III-c
C) I-a, f; II-b, e; III-c D) I-a, d; II-b, e; III-f
12. Oltin O'rda xonligida tashqi siyosat masalalari bilan kimlar shug'ullangan?
- A) Bosqoq, no'yon, ulusbegi
B) Xon, xonning yaqin maslahatchilari, beklarbegi
C) Bosqoq, vazir, no'yon
D) Xon va ulusbegi, no'yon
13. Botu va Subutoylar 1237-yilning kuzida rus yerlariga hujum boshlab, dastlab qaysi shaharni bosib olgan?
- A) Vladimir B) Galich C) Suzdal
D) Ryazan
14. 1870-1918-yillardagi Fransiya tarixiga oid ma'lumotni aniqlang.
- A) Shimoliy Afrikadagi Tunisni bosib oldi.
B) Ikkinchi imperiya tashkil topdi.
C) "Iyul monarxiyasi" boshqaruvi boshlandi.
D) To'rtinchi Respublika boshqaruvi barham topdi.
15. 1945-yil 2-sentabr kuni so'zsiz taslim bo'lish tog'risidagi pakti imzolagan davlatni aniqlang.
- A) Ispaniya B) Yaponiya C) Germaniya
D) Italiya

16. O'ttiz yillik urush natijasiga ko'ra, Yevropada siyosiy gegemonlik qaysi davlatga o'tgan?
- A) Fransiya B) Ispaniya
C) Germaniya D) Buyuk Britaniya
17. Quyidagi ma'lumotlar qaysi tarixiy shaxs haqida ekanligini aniqlang.
"U asli shotlandiyalik Styuartlar sulolasining vakili bo'lib, XVII asr boshida Angliya taxtiga o'tirgan. Uning hukmronligi davrida absolutizmning inqirozi kuchaygan, burjua inqilobi uchun iqtisodiy, siyosiy va g'oyaviy asoslar shakllangan".
- A) Yakov I B) Karl II C) Genrix VIII
D) Yakov II
18. Quyida berilgan voqealardan bir yilda sodir bo'lganlarini aniqlang.
- 1) Gruziyada prezidentlik lavozimi joriy qilindi;
2) Nursulton Nazarboyev Qozog'istonning birinchi prezidenti etib saylandi;
3) Ozarbayjonda A.Elchibey boshchiligidagi Xalq fronti hokimiyatga keldi; 4) Levon Ter Petrosyan Armanistonning birinchi prezidenti etib saylandi; 5) Mustaqil Chexiya Respublikasi tashkil topdi.
- A) 2, 4, 5 B) 1, 3, 5 C) 1, 2, 4 D) 2, 3, 4
19. Qaysi davrda patriarxat boshlangan?
- A) neolit B) bronza C) so'nggi paleolit
D) mezolit
20. Monopolistik kapitalizm bosqichida xalqaro monopoliyalar o'rtasida jahon xo'jaligi va boyligini nazorat qilish uchun kurash natijasida jahonning kerosin bozorini o'zaro bo'lishib olgan moliya guruhlarini aniqlang.
- A) Morgan va Rokfellerlar guruhi
B) Morgan va Karnegilar guruhi
C) Rokfeller va Rotshildlar guruhi
D) Rotshild va Krupp guruhi
21. Quyidagilardan 1910-yilda Buxoroda "Tarbiyai atfol" ("Bolalar tarbiyasi") jamiyatini tashkil qilgan shaxslarni toping.
- 1) Mirza Abduvohid; 2) Is'hoqxon Ibrat;
3) Muhammaddin maxdum; 4) Abduqodir Shakuriy
- A) 1, 3 B) 2, 4 C) 1, 4 D) 2, 3

22. Genotsid atamasining ma'nosi qaysi javobda to'g'ri berilgan?
- A) aholining ayrim guruhlarini yoki butun boshli xalqlarni siyosiy, irqiy, milliy, etnik yoki diniy belgilar asosida qirg'in qilish
- B) zo'ravonlik va diktatorlik usullari bilan davlatni boshqaradigan harbiylar hokimiyati
- C) bir qator mamlakatlarda davlat boshqaruv organi bo'lib asosiy vazifasi mavjud tuzumni himoya qilish
- D) davlatni boshqarish shakli bo'lib, unda hokimiyat harbiylarga tegishli bo'lishi
23. Quyida berilganlardan qaysilari Hindistonning XVI-XVIII asrlardagi tarixi bilan **bog'liq emas?**
- 1) Sipohiyalar qo'zg'oloni; 2) lo'diyalar sulolasi; 3) boburiylar sulolasi; 4) sayyidlar sulolasi; 5) "tlatoani"; 6) Tojmahal mavzoleyi
- A) 1, 2, 5 B) 2, 3, 6 C) 3, 4, 6 D) 1, 4, 5
24. Odam, hayvon va parrandalarning yuqumli kasalliklari – kuydirgi, quturish, vabo va boshqalarni o'rganib, ularning (ayniqsa, quturishning) oldini oluvchi emlash usullarini yaratgan olimni aniqlang.
- A) I.Mechnikov B) R.Virxov C) R.Kox
D) L.Paster
25. Quyidagi davlatlardan qaysi birining milliy valutasini "peso" hisoblanadi?
- A) Meksika B) Laos C) Braziliya
D) Hindiston
26. Quyidagilardan G'aznaviylar saroyida ijod qilgan buyuk mutafakkirlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
- 1) Abu Rayhon Beruniy; 2) Muhammad Narshaxiy; 3) Nosir Xusrav; 4) Ibn Sino; 5) Gardiziy; 6) Mirxond
- A) 1, 4, 5 B) 3, 4, 6 C) 1, 3, 5 D) 2, 3, 6
27. Qadimgi Misr podshohligining poytaxti – Memfisning bosh xudosini toping.
- A) Osiris B) Ptax C) Xapi D) Xatxor

28. Xaritada yulduzcha bilan belgilangan hudud(davlat) tarixi bilan bog'liq to'g'ri ma'lumot berilgan javobni toping.



- A) 1848-yilda Respublika deb e'lon qilindi
- B) XIX asr oxirida Eritreyani o'ziga bo'ysundirdi
- C) 1640-yilda burjua inqilobi boshlandi
- D) 1510-yilda Kubani bosib oldi

29. Lyudovik XVI qatl qilinganidan so'ng Fransiyaga qarshi urush e'lon qilgan davlatlar xaritada qaysi raqamlar ostida berilgan?



- A) 1, 4
- B) 2, 4
- C) 1, 3
- D) 2, 5

30. Quyidagi jadvalda ma'lumotlar to'g'ri moslashtirilgan qatorlarni toping.

№	Davlat	Voqea	Hukmdor
1.	Buxoro xonligi	Mamlakat viloyatlari xonning o'g'illari va yaqin qarindoshlariga mulk qilib taqsimlab berilganligi sabab mamlakatda siyosiy tarqoqlik kuchaydi	Imomqulixon
2.	Arab xalifaligi	Qur'on oyatlari to'planib yagona kitob holiga keltirildi	xalifa Usmon
3.	Yaponiya	Mamlakat va jamiyat hayotini tartibga solishda u joriy etgan "100 moddali Farmon" deb ataluvchi qonunlar to'plami katta ahamiyatga ega bo'ldi	Tokugava Ieyasu
4.	G'aznaviylar davlati	Mamlakat viloyatlari birin-ketin qo'ldan chiqib, davlat tanazzulga yuz tutdi	Ma'sud G'aznaviy
5.	Vizantiya	Daniyaliklar bilan tuzilgan tinchlik sulhiga binoan, Kipr oroli ikki qismga bo'lindi	Yustinian I
6.	Rossiya imperiyasi	Xiva xonligi vassal davlatga aylantirildi	Aleksandr II

A) 1, 2, 3 B) 2, 4, 6 C) 4, 5, 6 D) 1, 3, 5